19. Вопрос о довыборах в состав Совета Банка рассматривается в том же Общем Собрании Акционеров, в котором принят решения о досрочном прекращении полномочий членов Совета Банка.	19. Bank Kengashiga qo'shimcha saylovlar o'tkazish to'g'risidagi masala Kengash a'zolarining vakolatlarini muddatidan oldin bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilgan Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ko'rib chiqiladi.
IV. ПРЕДСЕДАТЕЛЬ СОВЕТА БАНКА	IV. BANK KENGASHINING RAISI
20. Председатель Совета Банка избирается членами Совета Банка из его состава большинством голосов от общего числа избранных членов Совета Банка.	20. Bank Kengashi raisi Bank Kengashi a'zolari tomonidan uning a'zolari orasidan Bank Kengashining saylangan a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan saylanadi.
21. Совет Банка вправе переизбрать своего Председателя большинством голосов от общего числа членов Совета.	21. Bank Kengashi Kengash a'zolarining umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan o'z raisini qayta saylashi mumkin.
22. Председатель Совета Банка организует работу Совета, созывает заседания Совета и председательствует на них, заключает от имени Банка трудовой договор о найме Председателя Правления, организует на заседаниях Совета Банка ведение протокола, председательствует на Общем Собрании Акционеров.	22. Bank Kengashi Raisi Kengash faoliyatini tashkil qiladi, Kengash majlislarini chaqiradi va ularga raislik qiladi, Bank nomidan Boshqaruv Raisi bilan mehnat shartnomasini tuzadi, bayonnomalarni bankda saqlashni tashkil qiladi, Bank Kengashi majlislari, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida raislik qiladi.
23. В случае отсутствия председателя Совета Банка его функции осуществляет один из членов Совета Банка.	23. Bank Kengashi Raisi yo'qligida uning funksiyalarini Bank Kengashi a'zolaridan biri amalga oshiradi.
V. ЗАСЕДАНИЕ СОВЕТА БАНКА	V. BANK KENGASHINING YIG'ILISHI

<p>24. Заседание Совета Банка созывается его Председателем по собственной инициативе, по требованию членов Совета, Ревизионной комиссии, Правления Банка, начальника службы внутреннего аудита Банка, Центрального Банка Республики Узбекистан.</p>	<p>24. Bank Kengashi majlisi, uning raisi tomonidan o'z tashabbusi bilan, Kengash a'zolari, Taftish komissiyasi, Boshqaruv, Bankning Ichki audit xizmati rahbari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankinging so'rovi asosida chaqiriladi.</p>
<p>25. Письменное или электронное уведомление о каждом собрании Совета Банка должно быть предоставлено каждому члену Совета по крайней мере за 14 (четырнадцать) календарных дней перед таким собранием, если нет иного согласия такого члена Совета.</p>	<p>25. Bank Kengashining har bir yig'ilishi to'g'risida yozma yoki elektron xabarnoma Kengashning har bir a'zosiga bunday yig'ilishdan kamida 14 (o'n to'rt) kalendar kun oldin yetkaziladi, agar bunday a'zo bilan boshqacha kelishuv bo'lmagan bo'lsa.</p>
<p>26. Повестка дня и материалы, подробно излагающие вопросы, предложенные для обсуждения на заседании Совета, вместе с необходимой информацией и прилагаемыми документами, должны быть распространены каждому из членов Совета, по крайней мере, за 14 (четырнадцать) день до даты соответствующего собрания.</p>	<p>26. Kengash majlisida muhokama qilish uchun taklif qilingan masalalarning kun tartibi va batafsil xulosasi, kerakli ma'lumotlar va ilova qilingan hujjatlar bilan birgalikda, tegishli yig'ilish kunidan kamida 14 (o'n to'rt) kun oldin har bir Kengash a'zosiga yetkazilishi kerak.</p>
<p>27. Совет Банка созывается не реже одного раза в квартал. Заседания Совета должны проводиться в Ташкенте, Республика Узбекистан, или в другом месте, которое может быть обоснованно определено Советом. Члены Совета могут участвовать в собрании Совета (в зависимости от обстоятельств) с помощью любых средств, допускаемых применимым законодательством, и такое участие в собрании представляет собой личное присутствие на собрании. На заседании в обязательном порядке рассматриваются:</p> <ul style="list-style-type: none">- отчет Правления Банка о ходе выполнения годового бизнес-плана Банка, о принимаемых мерах по достижению стратегии развития Банка, о проделанной работе и достижении показателей деятельности филиалов, входящих в состав Банка, утвержденных их бизнес-планами, а также других внутренних документов Банка;- отчет службы внутреннего аудита;- заключение ревизионной комиссии о наличии сделок с аффилированными лицами или крупных сделок в Банке, а также соблюдении требований	<p>27. Bank Kengashi har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Kengash majlislari O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahrida yoki Kengash tomonidan asoslab berilgan boshqa joyda o'tkaziladi. Kengash a'zolari kengash majlisida (sharoitga qarab) amaldagi qonunchilikda ruxsat etilgan har qanday aloqa vositalari bilan qatnashishi mumkin va bunday ishtirok etish yig'ilishda shaxsan ishtirok etishini anglatadi. Majlisda quyidagi masalalar majburiy asosda ko'rib chiqiladi:</p> <ul style="list-style-type: none">- Bankning yillik biznes-rejasini amalga oshirish to'g'risida, Bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida, Bank tarkibiga kirgan filiallarning bajargan ishlari va samaradorligi ko'rsatkichlari to'g'risida Bank Boshqaruvining hisoboti, ularning biznes-rejalari, shuningdek Bankning boshqa ichki hujjatlari;- ichki audit xizmati hisoboti;- bankda filiallar bilan operatsiyalar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek bunday operatsiyalarni amalga oshirishda bank qonunchiligi va ichki hujjatlari talablariga rioya qilinganligi to'g'risida Taftish komissiyasining xulosasi.

<p>законодательства и внутренних документов Банка к совершению таких сделок.</p>	
<p>28. Решения на заседании Совета Банка по вопросам в рамках его компетенции принимаются простым большинством голосов присутствующих, за исключением решений:</p> <ul style="list-style-type: none"> - принимаемых заочным голосованием; - о совершении крупной сделки, предметом которой является имущество, балансовая стоимость или стоимость приобретения которого составляет от 15 (пятнадцать) до 50 (пятьдесят) процентов от размера чистых активов общества на дату принятия решения о совершении такой сделки; - об одобрении сделки с аффилированным лицом; которые принимаются единогласно. 	<p>28. Bank Kengashi majlislarida uning vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha qarorlar, ishtirok etganlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, quyidagi qarorlar bundan mustasno:</p> <ul style="list-style-type: none"> - sirdan ovoz berish bilan tasdiqlangan; - balans qiymati yoki sotib olish qiymati 15 (o'n besh) dan 50 (ellik) foizgacha bo'lgan aktivlarni o'z ichiga olgan yirik bitimni tuzish to'g'risida qaror qabul qilingan kunga qadar kompaniyaning sof aktivlari; - affilangan shaxs bilan tuzilgan bitimni tasdiqlash to'g'risida; bir ovozdan qabul qilinishi kerak.
<p>29. Кворум для проведения Совета Банка должен составлять не менее 75 (семидесяти пяти) процентов от числа избранных членов Совета.</p>	<p>29. Bank Kengashining kvorumi saylangan Kengash a'zolarining kamida 75 (yetmish besh) foizini tashkil etadi.</p>
<p>30. В отсутствие установленного кворума на собрании Совета, созванного должным образом, собрание будет отложено на то же самое время и место не ранее, чем на 10 (десять) дней, но не позднее, чем на 21 (двадцать один) день с того момента, как определит Председатель Совета Банка. Требования кворума, изложенные в настоящем пункте, применяются также в случаях перенесенных заседаний Совета.</p>	<p>30. Belgilangan tartibda chaqirilgan Kengash yig'ilishida belgilangan kvorum bo'lmasa, yig'ilish huddi shu vaqtga va joyda Bank Kengashi raisi belgilagan muddatdan 10 (o'n) kundan erta bo'lmagan, va shu bilan birga 21 (yigirma bir) kundan oshmagan davrga qoldiriladi. Ushbu bandda keltirilgan kvorum talablari Kengash majlislari qoldirilgan hollarda ham qo'llaniladi.</p>
<p>31. В случае, когда количество членов Совета становится менее 75 (семидесяти пяти) процентов количества, предусмотренного Уставом Банка, Банк созывает внеочередное Общее собрание акционеров для избрания нового состава Совета Банка. Оставшиеся члены Совета Банка вправе принимать решение только о созыве такого внеочередного Общего Собрания Акционеров.</p>	<p>31. Kengash a'zolari soni Bank Ustavida belgilangan miqdordan 75 (yetmish besh) foizdan kam bo'lgan taqdirda, Bank yangi Kengashni saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini chaqiradi. Bank Kengashining qolgan a'zolari faqatgina navbatdan tashqari Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishlari mumkin.</p>
<p>32. При решении вопросов на заседании Совета Банка каждый член Совета обладает одним голосом.</p>	<p>32. Bank Kengashi yig'ilishida masalalar bo'yicha qaror qabul qilishda Kengashning har bir a'zosi bitta ovozga ega.</p>
<p>33. Передача голоса одним членом Совета Банка другому члену Совета не допускается.</p>	<p>33. Ovozning Bank Kengashi bir a'zosi tomonidan Kengashning boshqa a'zosiga berilishi mumkin emas.</p>

<p>34. На заседании Совета Банка ведется протокол. Ведение протокола заседания осуществляет секретарь Совета Банка.</p>	<p>34. Bank Kengashi yig'ilishida bayonnoma yuritiladi. Bank Kengashi kotibi yig'ilish bayonnomasini yuritadi.</p>
<p>35. Протокол заседания Совета Банка составляется не позднее 10 дней после его проведения.</p>	<p>35. Bank Kengashi yig'ilishi bayonnomasi yig'ilishdan keyin 10 kundan kechiktirmay tuziladi.</p>
<p>36. В протоколе заседания указываются:</p> <ul style="list-style-type: none"> - дата, время и место его проведения; - лица, присутствующие на заседании; - повестка дня заседания; - вопросы, поставленные на голосование, итоги голосования по ним; - принятые решения. 	<p>36. Yig'ilish bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - yig'ilish sanasi, vaqti va joyi; - majlisda qatnashgan shaxslar; - yig'ilish kun tartibi; - ovozga qo'yilgan masalalar, ovoz berish natijalari; - qabul qilingan qarorlar.
<p>37. Протокол заседания Совета Банка подписывается участвующими на заседании членами Совета Банка, которые несут ответственность за правильность протокола.</p>	<p>37. Bank Kengashi yig'ilishining bayonnomasini yig'ilishda qatnashadigan Bank Kengashi a'zolari imzolaydi, ular bayonnomaning to'g'riligi uchun mas'uldirlar.</p>
<p>38. Протокол заседания Совета Банка передается для исполнения Правлению Банка в день его подписания. В случае принятия Советом Банка решения о созыве Общего собрания акционеров информация о данном решении передается Правлению Банка в день проведения заседания Совета Банка.</p>	<p>38. Bank Kengashi yig'ilishining bayonnomasi imzolangan kuni Bank Boshqaruviga ijro uchun taqdim etiladi. Bank Kengashi Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, ushbu qaror to'g'risidagi ma'lumotlar Bank Kengashi yig'ilishi kunida Bank Boshqaruviga yuboriladi.</p>
<p>VI. ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ ЧЛЕНОВ СОВЕТА БАНКА</p>	<p>VI. BANK KENGASHI A'ZOLARINING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI</p>
<p>39. Член Совета Банка имеет право:</p> <ul style="list-style-type: none"> - лично принимать участие в заседании Совета Банка, выступать по обсуждаемому на заседании вопросу в пределах отведенного регламентом времени; - получать полную и достоверную информацию о результатах деятельности Банка за определенный период времени, о планах его развития; - получать вознаграждение и (или) компенсацию расходов за работу в Совете Банка в порядке, установленном законодательством и внутренними документами/решениями Банка. 	<p>39. Bank Kengashi a'zosi quyidagi huquqlarga ega:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Bank Kengashi yig'ilishida shaxsan ishtirok etish, me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan vaqtd davomida muhokama qilinayotgan masala bo'yicha yig'ilishda chiqish qilish; - Bankning ma'lum bir davrdagi faoliyati va uning rivojlanish rejaları to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumot olish; - qonun hujjatlarida va Bankning ichki hujjatlari/qarorlarida belgilangan tartibda Bank Kengashidagi xizmati uchun rag'bat pulini olish va (yoki) xarajatlarini qoplash; - qonun hujjatlariga va Bank Ustaviga muvofiq boshqa huquqlar;

<p>- иные права, предусмотренные законодательством и Уставом Банка; - создавать при Совете Банка комитеты по соответствующим вопросам, в том числе комитет по аудиту, по кадрам и др., из числа членов Совета Банка, Правления Банка, персонала Банка и привлеченных экспертов (специалистов соответствующего профиля, преподавательского состава профильных высших учебных заведений и других).</p>	<p>- Bank Kengashi huzurida Bank Kengashi, Bank Boshqaruvi a'zolari, Bank xodimlari va taklif qilingan mutaxassislardan (tegishli soha mutaxassislari, ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari va boshqalarni) tarkib topgan tegishli masalalar bo'yicha qo'mitalar, shu jumladan, taftish komissiyasi, kadrlar masalalari bo'yicha qo'mita va b.larni tashkil etish.</p>
<p>40. Член Совета Банка обязан: - информировать Банк о своей аффилированности в совершении сделки путем направления письменного уведомления с подробным указанием сведений о предполагаемой сделке, существенных условиях соответствующего договора. - осуществлять свои должностные обязанности добросовестно, а также тем способом, который он считает наилучшим в интересах Банка. - иные обязанности, предусмотренные законодательством и Уставом Банка.</p>	<p>40. Bank Kengashi a'zosi quyidagi majburiyatlari bor: - taklif qilinayotgan bitim va tegishli shartnomaning muhim shartlari to'g'risida batafsil ma'lumot bilan yozma ravishda xabar yuborish orqali Bankni bitimga qo'shilishi to'g'risida xabardor qilish. - o'z vazifalarini vijdonan, Bank manfaatlari uchun eng yaxshi deb topilgan usul bilan bajarish. - qonun hujjatlarida va Bank Ustavida belgilangan boshqa majburiyatlar.</p>
<p>41. Члены Совета Банка не имеют права использовать возможности Банка (имущественные или неимущественные права, возможности в сфере хозяйственной деятельности, информацию о деятельности и планах Банка) в целях личного обогащения.</p>	<p>41. Bank Kengashi a'zolari shaxsiy manfaatlarda o'z boyligini orttirish maqsadida Bank imkoniyatlaridan (mulkiy yoki nomulkiy huquqlar, biznes imkoniyatlari, Bank faoliyati va rejaları to'g'risidagi ma'lumotlar) foydalana olmaydi.</p>
<p>42. Члены Совета Банка, по своему усмотрению, могут выйти из состава Совета Банка. При этом Совет Банка принимает решение о созыве внеочередного Общего Собрания Акционеров для выбора и вывода члена Совета Банка. Выбывающий член Совета Банка не имеет право принимать участие в предстоящих заседаниях Совета Банка.</p>	<p>42. Bank Kengashi a'zolari o'z xohishlariga ko'ra Bank Kengashi tarkibidan chiqishlari mumkin. Bunday holatda, Bank Kengashi Bank Kengashi a'zosini saylash va undan chiqarish uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bank Kengashidan chiqib ketayotgan a'zo Bank Kengashining kelgusi yig'ilishlarida qatnashish huquqiga ega emas.</p>
<p>VII. ЗАЩИТА ПРАВ И ИНТЕРЕСОВ АКЦИОНЕРОВ БАНКА</p>	<p>VII. BANK AKSIYADORLARINING HUQUQLARI VA MANFAATLARINI MUHOFAZA QILISH</p>
<p>43. Защита прав и интересов акционеров Банка осуществляется Советом Банка путем:</p>	<p>43. Bank aksiyadorlarining huquqlari va manfaatlari Bank Kengashi tomonidan quyidagicha himoya qilinadi:</p>

<ul style="list-style-type: none">- организации деятельности Банка с учетом интересов акционеров;- контроля за подготовкой и проведением Общих Собраний Акционеров, процедурой голосования и подсчета голосов и принятия решений;- недопущения ущемления прав акционеров при изменении долей уставного капитала Банка путем увеличения либо уменьшения уставного фонда, выпуска дополнительных ценных бумаг и т.п.;- разработка эффективной дивидендной политики Банка;- рассмотрения вопросов, связанных с взаимоотношениями с акционерами Банка;- приема и рассмотрение предложений и жалоб акционеров на неправомерные и некомпетентные действия Правления.	<ul style="list-style-type: none">- aksiyadorlarning manfaatlarini hisobga olgan holda Bank faoliyatini tashkil etish;- aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish, ovoz berish va ovozlarni hisoblash jarayonlari hamda qarorlar qabul qilishni nazorat qilish;- ustav kapitalini oshirish yoki kamaytirish, qo'shimcha qimmatli qog'ozlar chiqarish yo'li bilan Bank ustav kapitali ulushlarini o'zgartirish paytida aksiyadorlarning huquqlari buzilishini oldini olish;- Bankning samarali dividend siyosatini ishlab chiqish;- Bank aksiyadorlari bilan munosabatlarga aloqador masalalarni ko'rib chiqish;- Boshqaruvning noqonuniy va layoqatsiz xatti-harakatlari to'g'risida aksiyadorlarning takliflari va shikoyatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish.
VIII. ОСУЩЕСТВЛЕНИЕ КОНТРОЛЯ ЗА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ БАНКА	VIII. BANK FAOLIYATI USTIDAN NAZORAT YURITILISHI
44. Совет Банка получает от Правления Банка периодические, не реже, чем 1 (один) раз в квартал, обзоры и письменные отчеты о финансовом положении и подробной информации о деятельности Банка, включая рекомендации по их улучшению, а также заслушивает доклады председателя Правления Банка и руководителя службы внутреннего аудита.	44. Bank Kengashi har chorakda kamida bir marta Bankning moliyaviy holati to'g'risida Boshqaruv tomonidan Bank faoliyati to'g'risida yozma hisobotlarni va qisqacha ma'lumotlarni hamda Bank faoliyati to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni, shu jumladan takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni oladi hamda Boshqaruv raisi va Ichki audit xizmati rahbarining hisobotlarini eshitadi.
45. Члены Совета Банка осуществляют тщательную проверку таких отчетов и рекомендаций, с целью определения их правильности и реализуемости.	45. Bank Kengashi a'zolari bunday hisobotlarni va tavsiyalarni ularning to'g'riligi va amalga oshirilish darajasini aniqlash uchun atroflicha ko'rib chiqadilar.
46. Предметом регулярного контроля со стороны Совета является, в частности, следующие финансовые коэффициенты: <ul style="list-style-type: none">- доход по отношению к активам;- доход по обыкновенным акциям;- размер общей процентной маржи;- расходы Банка, не связанные с выплатой процентов, по отношению к активам;- доля сомнительных и безнадежных кредитов по отношению ко всем кредитам;	46. Quyidagi moliyaviy ko'rsatkichlar Kengash tomonidan doimiy ravishda kuzatib boriladi: <ul style="list-style-type: none">- aktivlarga nisbatan daromad;- oddiy aksiyalarning rentabelligi;- umumiy foiz marjasi miqdori;- aktivlarga nisbatan foizlarni to'lash bilan bog'liq bo'lmagan Bank xarajatlari;- barcha kreditlarga nisbatan shubhali va yomon kreditlarning ulushi;

<ul style="list-style-type: none"> - доля списанных кредитов по отношению ко всем кредитам; - сумма крупных кредитов и кредиты лицам, связанным с Банком и др. 	<ul style="list-style-type: none"> - barcha qarzlarga nisbatan hisobdan chiqarilgan kreditlarning ulushi; - yirik kreditlar va Bank bilan bog'liq bo'lgan shaxslarga beriladigan kreditlar miqdori va boshqalar.
<p>IX. ОСУЩЕСТВЛЕНИЕ КАДРОВОЙ ПОЛИТИКИ</p>	<p>IX. INSON RESURSLARI SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH</p>
<p>47. Совет Банка разрабатывает и реализует кадровую политику Банка, стратегию привлечения высококвалифицированных руководителей и работников Банка.</p>	<p>47. Bank Kengashi yuqori malakali menejerlar va xodimlarni jalb qilish bo'yicha Bankning kadrlar siyosati va strategiyasini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.</p>
<p>48. Кадровая политика, должна соответствовать требованиям законодательства, которая содержит в себе:</p> <ul style="list-style-type: none"> - систему вознаграждений, поощрений и наказаний сотрудников Банка; - программу обучения и переобучения; - порядок замещения руководителей в случае возникновения вакансий; - определение перечня обстоятельств, при которых увольнение руководства Банка является обязательным. 	<p>48. Kadrlar siyosati qonunchilik talablariga muvofiq bo'lishi kerak, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Bank xodimlariga ish haqi, rag'batlantirish va jazolash tizimi; - malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturi; - bo'sh ish o'rinlari bo'lgan taqdirda menejerlarni almashtirish tartibi; - Bank rahbariyatini ishdan bo'shatish majburiy bo'lgan holatlar ro'yxatini aniqlash.
<p>49. Совет Банка формирует предложение о назначении или досрочном прекращении полномочий Председателя Правления Банка и вносит его на рассмотрение Общего Собрания Акционеров.</p>	<p>49. Bank Kengashi Bank Boshqaruvi Raisini tayinlash yoki vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to'g'risidagi taklifni shakllantiradi va ko'rib chiqish uchun Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishiga taqdim etadi.</p>
<p>50. Совет Банка разрабатывает и утверждает:</p> <ul style="list-style-type: none"> - критерии оценки работы членов Правления Банка и руководителей основных служб Банка; - этический кодекс работников Банка и меры по предотвращению конфликта интересов; - перечень условий, при которых должностные лица Банка отстраняются от возложенных обязанностей вследствие некомпетентности, недобросовестности, или по другим причинам, которые могут негативно повлиять на деятельность Банка или его подразделений. 	<p>50. Bank Kengashi quyidagilarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Boshqaruv a'zolari va Bankning asosiy xizmatlari rahbarlari faoliyatini baholash mezonlari; - Bank xodimlarining axloq kodeksi va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish choralari; - qobiliyatsizligi, noxolisona faoliyati yoki Bank yoki uning tarkibiy bo'linmalari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa sabablarga ko'ra Bank xodimlari o'z vazifalarini bajarishdan chetlashtirilishi shartlari ro'yxati.
<p>X. ПОДДЕРЖАНИЕ АДЕКВАТНОЙ КАПИТАЛИЗАЦИИ БАНКА</p>	<p>X. BANKNING MUVOFIQ KAPITALIZATSIYASINI SAQLAB QOLISH</p>

<p>51. В целях сохранения капитала Банка и обеспечения его соответствия масштабам и степени риска операций Банка, Совет Банка:</p> <ul style="list-style-type: none">- осуществляет контроль за созданием Банком специальных резервов, необходимых для покрытия возможных потерь в размерах, установленных Центральным Банком Республики Узбекистан (далее – Центральный Банк);- требует от Правления Банка обеспечения уровня банковских рисков, не выше установленных Центральным Банком параметров;- принимает меры по размещению ценных бумаг Банка, в случае принятия решений о выпуске ценных бумаг;- обеспечивает поддержание на достаточном уровне капитальных и общих резервов Банка.	<p>51. Bank kapitalini saqlab qolish va uning Bank operatsiyalari xavfi ko'lamini va darajasiga muvofiqligini ta'minlash maqsadida Bank Kengashi:</p> <ul style="list-style-type: none">- Bank tomonidan potentsial yo'qotishlarni qoplash uchun zarur bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (keyingi o'rinlarda - Markaziy bank) tomonidan belgilanadigan miqdorda maxsus zaxiralar yaratilishini nazorat qiladi;- Boshqaruvdan Markaziy bank tomonidan belgilangan parametrlardan oshmaydigan bank xatarlari darajasini ta'minlashni talab qiladi;- qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida qarorlar qabul qilingan taqdirda Bankning qimmatli qog'ozlarini joylashtirish choralarini ko'radi;- Bank kapitali va umumiy zaxiralarning yetarli darajada saqlanishini ta'minlaydi.
<p>XI. ФОРМИРОВАНИЕ И ВЫПОЛНЕНИЕ БИЗНЕС-ПЛАНА РАЗВИТИЯ БАНКА</p>	<p>XI. BANK TARAQQIYOTI BIZNES REJASINI SHAKLLANTIRISH VA TATBIQ ETISH</p>
<p>52. Совет Банка разрабатывает (как самостоятельно, так и с привлечением сторонних консультантов и экспертов) и утверждает бизнес-план развития Банка, включающий:</p> <ul style="list-style-type: none">- политику принятия решений о кредитовании;- процедуру контроля за кредитами;- систему управления активами и пассивами;- порядок инвестирования.	<p>52. Bank Kengashi (mustaqil ravishda va tashqi maslahatchilar va ekspertlarni jalb qilgan holda) quyidagilarni o'z ichiga olgan Bank taraqqiyoti biznes rejasini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi:</p> <ul style="list-style-type: none">- kreditlash bo'yicha qaror qabul qilish siyosati;- kreditni boshqarish tartibi;- aktivlar va passivlarni boshqarish tizimi;- investitsiya qilish tartibi.
<p>53. Совет Банка обеспечивает реализацию бизнес-плана развития Банка посредством организации работы Правления Банка.</p>	<p>53. Bank Kengashi Bank taraqqiyoti biznes rejasini Boshqaruv faoliyatini tashkil etish orqali amalga oshirilishini ta'minlaydi.</p>
<p>54. Бизнес-план развития Банка пересматривается, как правило, не реже, чем 1 (один) раз в год, с целью внесения необходимых изменений и дополнений.</p>	<p>54. Bank taraqqiyoti biznes rejasi, odatda, zarur bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish uchun yiliga kamida 1 (bir) marta ko'rib chiqiladi.</p>
<p>XII. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЧЛЕНОВ СОВЕТА БАНКА</p>	<p>XII. BANK KENGASHI A'ZOLARINING MAS'ULIYATI</p>
<p>55. Члены Совета Банка несут ответственность за ненадлежащее выполнение своих обязанностей перед Банком в соответствии с законодательством Республики Узбекистан и Уставом Банка.</p>	<p>55. Bank Kengashi a'zolari o'zlarining vazifalarini lozim darajada bajarmaganliklari uchun Bank oldida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bank ustaviga muvofiq javobgardirlar.</p>
<p>56. В случае, если ответственность несут несколько лиц, их ответственность перед Банком является солидарной.</p>	<p>56. Agar bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning Bank oldidagi majburiyati umumiy majburiyat hisoblanadi.</p>

57. От ответственности освобождаются члены Совета Банка согласно ст. 81 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров».	57. Bank Kengashi a'zolari "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 81-moddasiga muvofiq javobgarlikdan ozod qilinadi.
58. Банк или акционер (акционеры), владеющий в совокупности не менее чем одним процентом размещенных акций Банка, вправе обратиться в суд с иском к члену Совета Банка о возмещении убытков, причиненных Банку.	58. Bank yoki Bankning muomalada bo'lgan aksiyalarining kamida bir foizini tashkil etgan aksiyador(lar) sudga Bank tomonidan yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida Bank Kengashi a'zosiga da'vo bilan murojaat qilishlari mumkin.
59. Члены Совета Банка несут ответственность за соответствие принятых ими решений нормам действующего законодательства.	59. Bank Kengashi a'zolari o'z qarorlarining amaldagi qonunlarga muvofiqligi uchun javobgardirlar.
60. Ответственным за обеспечение членом Совета Банка необходимыми материалами, а также за взаимосвязь с акционерами и инвесторами является Корпоративный консультант Банка.	60. Bankning korporativ maslahatchisi Bank Kengashi a'zolarini zarur materiallar bilan ta'minlash hamda aksiyadorlar va investorlar bilan munosabatlar uchun javobgardir.
61. Лица, виновные в нарушении требований настоящего Положения несут ответственность в установленном законодательством порядке.	61. Ushbu Nizomning talablarini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.
ХІІІ. ЗАКЛЮЧИТЕЛЬНЫЕ ПОЛОЖЕНИЯ	ХІІІ. YAKUNIY QOIDALAR
62. Настоящее Положение, а также изменения и дополнения к нему, утверждаются Общим Собранием Акционеров Банка.	62. Ushbu Nizom hamda unga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar Bank Aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.
63. Если отдельные статьи настоящего Положения вступают в противоречие с действующим законодательством Республики Узбекистан и/или Уставом Банка, эти статьи утрачивают силу и в части регулируемых этими статьями вопросов следует руководствоваться нормами действующего законодательства Республики Узбекистан и/или Устава Банка до момента внесения соответствующих изменений в настоящее Положение.	63. Agar ushbu Nizomning ayrim moddalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va /yoki Bank Ustaviga zid bo'lsa, ushbu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu moddalar bilan tartibga solinadigan masalalar mazkur Nizomga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalari va/yoki Bank Ustavi bilan tartibga solinadi.
64. Настоящее Положение составлено на двух языках, английском и русском. В случае расхождений между двумя версиями английский язык имеет преваляющую силу.	64. Mazkur Nizom ikki tilda, ingliz va rus tillarida tuzilgan. Ikkala versiya o'rtasida farq bo'lsa, ingliz tilidagi hujjat ustunlik qiladi.